



FARG'ONA VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

FARG'ONA VILOYATIDA XIZMATLAR SOHASINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI




2024- yil
yanvar-noyabr

Dastlabki ma'lumotlar

Xizmatlar sohasining mamlakat iqtisodiyotidagi ulushini oshirish, joylarda xizmatlar sohasidagi mavjud imkoniyatlardan to'liq foydalanish, xizmat turlarini kengaytirish va sifatini oshirish, tadbirkorlik subyektlarini yanada qo'llab-quvvatlash maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021- yil 11- maydagi PQ-5113-son qarori bilan "O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirishning maqsadli parametrlari" tasdiqlandi va ularning monitoringini olib borish joriy etildi.

Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-noyabr)

24,0




Xizmatlar sohasidagi
korxonalar va
tashkilotlar
ulushi, % da

11 972,5
ming so'm



Aholi jon
boshiga
xizmatlar
hajmi

76,0




Xizmatlar sohasida
kichik tadbirkorlikning
ulushi, % da



Xizmatlar sohasi bu – korxonalar, tashkilotlar, shuningdek, jismoniy shaxslar tomonidan ko'rsatiladigan turli xil xizmat turlarini takror ko'rsatishni o'z ichiga olgan umumlashtiruvchi kategoriyadir. Bu tijorat, professional va iste'mol xizmatlarini ko'rsatishga ixtisoslashgan mamlakatning iqtisodiy sektoridir.

Soni, birlikda





Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar (1-dekabr holatiga ko'ra)




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan korxonalar va tashkilotlar (yanvar-noyabr)

Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida faoliyat ko'rsatayotgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(1-dekabr holatiga ko'ra)



Soni, birlikda




Soni, birlikda




Xizmatlar sohasida yangi tashkil etilgan kichik tadbirkorlik subyektlari


(yanvar-noyabr)



Xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlari umumiy hajmining o'sishiga xizmat turlarining qo'shgan hissasi (2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ Bu yerda va keyingi o'rinlarda 2020-2023- yillar uchun aniqlik kiritilgan ma'lumotlar keltirilgan

Ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi iste'molchilarga (yuridik va jismoniy shaxslarga, shu jumladan norezidentlarga) ma'lum vaqt davomida ko'rsatiladigan xizmatlar qiymati (narxi)ni aks ettiradi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasining asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-noyabr)


Hudud	Hajmi, mlrd so'mda	Ulushi, % da	O'sish sur'ati, % da
Farg'ona viloyati	48 998,5	100,0	112,0
Farg'ona shahar	9 339,4	19,1	113,0
Qo'qon shahar	5 134,6	10,5	112,2
Quvasoy shahar	644,2	1,3	109,6
Marg'ilon shahar	2 485,8	5,1	110,1
Oltiariq tumani	1 256,2	2,6	112,3
Qo'shtepa tumani	659,3	1,3	110,6
Bag'dod tumani	620,2	1,3	110,9
Buvayda tumani	1 200,4	2,4	112,4
Beshariq tumani	756,6	1,5	112,0
Quva tumani	768,7	1,6	111,4
Uchko'prik tumani	1 127,3	2,3	116,5
Rishton tumani	825,6	1,7	110,2
So'x tumani	357,2	0,7	110,5
Toshloq tumani	912,0	1,9	111,1
O'zbekiston tumani	662,3	1,4	109,5
Farg'ona tumani	913,6	1,9	110,2
Dang'ara tumani	670,1	1,4	110,6
Furqat tumani	457,1	0,9	109,3
Yozyovon tumani	542,6	1,1	109,7
Hisobga olinmagan hajm	19 665,3	40,1	115,2

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aholi jon boshiga bozor xizmatlarining asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida aholi jon boshiga xizmatlar hajmi (2024- yil yanvar-noyabr)




Xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari dinamikasi (yanvar-noyabr)



Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmida kichik korxonalar subyektlarining ulushi **76,0** foizni, shu jumladan, **46,5** foizni kichik tadbirkorlik va mikrofirmalarning ulushi tashkil etdi.

Hududlar kesimida xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik

(2024- yil yanvar-noyabr)



Tarmoqlar tasniflagichining belgilangan xalqaro standartlariga o'tish munosabati bilan O'zbekiston Respublikasida xizmatlar sohasini rivojlantirish Dasturining maqsadli parametrlariga kiritilgan xizmatlarning asosiy turlarini guruhlash, G dan S gacha bo'lgan bo'limlar bo'yicha xizmatlar bilan bog'liq qism va iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha mahsulotlar (tovarlar, ishlar, xizmatlar) Statistik tasniflagichi (MST)ga ko'ra muvofiqlashtirildi.

Xizmatlar sohasining turlari bo'yicha asosiy ko'rsatkichlari (2024- yil yanvar-noyabr)

Nomi	Hajmi, <i>mlrd so'mda</i>	Ulushi, <i>% da</i>	O'sish sur'ati, <i>% da</i>
Xizmatlar – jami	48 998,6	100,0	112,0
shu jumladan:			
Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari	1 865,6	3,8	112,9
Moliyaviy xizmatlar	6 343,5	12,9	117,0
Transport xizmatlari	6 264,5	12,8	110,7
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	5 785,0	11,8	109,7
Yashash va ovqatlanish xizmatlari	16 145,1	32,9	111,4
Savdo xizmatlari	9 993,0	20,4	112,9
Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar	803,5	1,6	114,5
Ta'lim sohasidagi xizmatlar	1 551,8	3,2	110,9
Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar	909,1	1,9	100,0
Ijara xizmatlari	628,6	1,3	107,0
Kompyuter va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar	1 079,2	2,2	110,8
Shaxsiy xizmatlar	1 651,0	3,4	109,9
Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar	231,5	0,5	106,9
Boshqa xizmatlar	1 532,2	3,1	109,1


Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)

2024- yilning


yanvar-noyabr

oyida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar tarkibida oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar ustunlik qildi – **97,8** foiz.



Hududlar kesimida yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar

(2024- yil yanvar-noyabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da

2024- yilning yanvar-noyabr

oyida chakana savdoning ulushi savdo xizmatlari umumiy hajmining deyarli to'rt dan uch qismini, ya'ni **65,7** foizni tashkil etdi.

Savdo xizmatlari dinamikasi ¹⁾(yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida savdo xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)




Hududlar	Hajmi, mlrd so'mda	O'sishi, % da
Farg'ona sh.	1 723,7	+14,2
Qo'qon sh.	1 475,9	+12,5
Marg'ilon sh.	865,6	+8,3
Uchko'prik	624,0	+25,4
Oltiariq	421,7	+9,9
Toshloq	386,2	+11,4
Buvayda	372,7	+9,8
Yozyovon	294,0	+8,2
Farg'ona t.	285,2	+9,9
Quvasoy sh.	270,6	+11,0
Dang'ara	255,8	+14,7
Beshariq	233,8	+10,7
Bag'dod	225,3	+11,7
Qo'shtepa	219,2	+10,6
Rishton	206,6	+5,5
O'zbekiston	204,6	+11,3
Quva	186,3	+3,3
Furqat	174,8	+3,1
So'x	138,0	+9,8

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda ◆ O'sishi, % da

Moliyaviy xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)

■ Hajmi, mlrd so'mda
 O'sish sur'ari, % da




Hududlar kesimida moliyaviy xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd. so'mda)

Farg'ona sh.	3 085,3
Qo'qon sh.	1 392,0
Buvayda	470,2
Marg'ilon sh.	218,6
Quva	162,0
Beshariq	132,5
Rishton	121,2
Uchko'prik	95,7
Quvasoy sh.	84,6
Toshloq	81,0
Dang'ara	75,7
Oltiariq	69,6
Farg'ona	67,3
O'zbekiston	66,0
Bag'dod	58,7
Qo'shtepa	53,0
Yozyovon	40,3
Furqat	37,9
So'x	31,8

Moliyaviy xizmatlar tarkibi (2024- yil yanvar-noyabr)

Yordamchi moliyaviy faoliyat




Moliyaviy xizmatlar tarkibidagi sug'urta va nafaqa xizmatlaridan tashqari xizmatlarning ulushi, **2024-yil yanvar-noyabrda 94,5** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **48,6** foizni yoki **3 085,3** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yil yanvar-noyabr oylariga nisbatan Quva tumanida yuqori o'sish sur'ati **134,8** foizni tashkil etdi.

Transport xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

■ Hajmi, mlrd so'mda
● O'sishi (kamayishi), % da




Transport xizmatlarining umumiy hajmida avtomobil transporti xizmatlari ustunlik qiladi – **92,4 %**.

Farg'ona shahrida transport xizmatlari hajmi **1 468,5** mlrd so'mni tashkil etgan. Mazkur hududda transport xizmatlari hajmining o'sish sur'ati **107,4 %** ni tashkil etgan.

Hududlar kesimida transport xizmatlari

(2024- yil yanvar-noyabr)





¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


■ Hajmi, mlrd so'mda ○ O'sishi, % da

Avtomobil transporti xizmatlari dinamikasi (yanvar-noyabr) ¹⁾

2024- yil yanvar-noyabr oyida avtomobil transportida ko'rsatilgan bozor xizmatlari hajmi **5 785,0** mlrd so'mga yetdi. Ko'rsatilgan bozor xizmatlarining umumiy hajmidagi ulushi **11,8 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida avtomobil transporti xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)



Transport xizmatlari umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **20,8** foizni yoki **1 201,6** mlrd so'mni tashkil etdi.

2023- yilning yanvar-noyabr oyiga nisbatan Qo'qon shahrida **112,7** foiz yuqori o'sish sur'ati qayd etildi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)



Aloqa va axborotlashtirish xizmatlarining umumiy hajmida eng katta hajmni telekommunikatsiya xizmatlari egallaydi. **2024- yilning yanvar-noyabr** oyida ularning ulushi **71,7** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda

◆ O'sishi, % da

Ta'lim sohasidagi xizmatlar dinamikasi

(yanvar-noyabr)




Ta'lim sohasidagi xizmatlarning umumiy hajmida oliy ta'lim sohasidagi xizmatlar ustunlik qilib, **2024- yil yanvar-noyabr** oyidagi ulushi **51,6 %** ni tashkil etdi.



Hududlar kesimida ta'lim sohasidagi xizmatlar


(2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)




Hududlar orasida ta'lim sohasidagi eng katta hajm Farg'ona shahriga to'g'ri keladi. **2024- yilning yanvar-noyabr** oylari davomida mazkur hududda ushbu turdagi xizmat hajmi **691,6** mlrd so'mga yetdi yoki ta'lim sohasidagi xizmatlar umumiy hajmining **44,6** foiziga yetdi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar umumiy hajmida shifoxona muassasalari xizmatlarining hissasi salmoqli bo'lib, **2024- yil yanvar-noyabr** oylaridagi ulushi **46,3** foizni tashkil etdi.



Hududlar kesimida sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar dinamikasi ¹⁾


(yanvar-noyabr)



Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarning umumiy hajmida shaxsiy yoki ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berish va boshqarish bo'yicha xizmatlar **82,7** foizni tashkil etdi.

Hududlar kesimida ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlar

(2024- yil yanvar-noyabr)




¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

■ Hajmi, mlrd so'mda 🏠 O'sishi, % da

Ijara xizmatlari dinamikasi ¹⁾ (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida ijara xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr, mlrd so'mda)




2024- yilning yanvar-noyabr oylarida ijara xizmatlari hajmi **628,6** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida yengil avtomobillar va yengil avtotransport vositalarining ijarasi bo'yicha xizmatlarning salmoqli qismi – **54,6** foizni tashkil etadi.

¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda


Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari dinamikasi ¹⁾

(yanvar-noyabr)



Boshqa shaxsiy foydalanish buyumlari va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar jami kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlarining 77,1 foizini tashkil etadi.

Hududlar kesimida kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash xizmatlari (2024- yil yanvar-noyabr)



¹⁾ hududlar bo'yicha taqsimlanmagan hajmlarni hisobga olgan holda

Hajmi, mlrd so'mda * O'sishi, % da

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar dinamikasi (yanvar-noyabr)



Hududlar kesimida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (2024- yil yanvar-noyabr holatiga, mlrd so'mda)

Farg'ona sh.	168,3
Qo'qon sh.	21,0
Quvasoy sh.	5,0
Buvayda	3,9
Farg'ona	3,8
Rishton	2,5
Toshloq	2,5
Oltiariq	1,5
Beshariq	1,4
O'zbekiston	1,3
Uchko'prik	0,9
Marg'ilon sh.	0,9
Quva	0,5
Bag'dod	0,4
Dang'ara	0,2
Qo'shtepa	0,1
Yozyovon	0,1
Furqat	0,0
So'x	0,0



2024- yilning yanvar-noyabr oylarida me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi **231,5** mlrd so'mga yetdi.

Ushbu xizmatlarning umumiy hajmida Farg'ona shahrining ulushi **72,7** foizni tashkil etdi.

Moliyaviy xizmatlar hajmi moliyaviy vositachilik hisobidan olingan foizli daromadlar hajmi (xizmatlar uchun belgilangan to'lovlar miqdorida), shuningdek, moliya muassasasi tomonidan ssuda berish yoki depozitni saqlash bo'yicha xizmatlar uchun to'lanadigan haq hisobiga ko'ra olinadi.

Transport xizmatlarining hajmi amaldagi narxlarda transport turlari bo'yicha transport jarayoniga (yuklarni tushirish va yuklash ishlari, transport-ekspeditorlik xizmatlari, transport xizmati va boshqalar) bevosita bog'liq bo'lgan tashish va boshqa faoliyatdan olingan daromad summasi sifatida aniqlanadi.

Avtomobil transporti xizmatlariga temir yo'lda tashishdan tashqari, quruqlikdagi yo'lovchi transportining boshqa xizmatlari, avtomobil transportida yuk tashish bo'yicha xizmatlar va ko'chish bo'yicha xizmatlar kiradi.

Savdo xizmatlari, shu jumladan, elektron savdo xizmatlari hajmi amaldagi narxlardagi yalpi daromad qiymati, ya'ni sotilgan tovarlarning sotib olish va sotish narxлари orasidagi farqining umumiy qiymati sifatida hisobga olinadi. Agar tovarlar boshqa shaxs manfaatlari uchun oldi-sotdi shartnomalari, komissiyalar yoki agentlik shartnomalari asosida sotilgan taqdirda, xizmatlar qiymati mukofot miqdori sifatida aks ettiriladi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari hajmi amaldagi narxlarda mazkur sohada xizmat ko'rsatuvchi korxonalarining daromadlari (sotishdan tushgan tushum miqdori) yig'indisi sifatida aniqlanadi.

Telekommunikatsiya xizmatlari bu – ovozli, matnli, ovozli yoki video ma'lumotlarni uzatish kabi telekommunikatsiya va boshqa tegishli xizmatlarni taqdim etish.

“Ta’lim” seksiyasi kunduzgi yoki sirtqi shaklda, shuningdek, Internet tarmog'i va pochta yozishmalari orqali xususiy yoki davlat tomonidan beriladigan turli darajadagi ta'limni va turli kasblarga o'rgatishni o'z ichiga oladi.

Bunga turli darajadagi muntazam maktab tizimi doirasida turli muassasalar tomonidan beriladigan ta'lim, shuningdek, kattalar uchun ta'lim (tayyorlash va qayta tayyorlash kurslari), ta'lim sohasida yordamchi faoliyat va shunga o'xshash boshqalar kiradi.

Ta'lim sohasidagi faoliyatni amalga oshirishda masofaviy o'qitish shaklini ham hisobga olgan holda ko'rsatilgan bozor xizmatlari (kontrakt) qiymati aks ettiriladi.

Sog'liqni saqlash sohasidagi xizmatlar hajmi bu – sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan turli xil tibbiy yordam va sanitariya xizmatlari uchun ko'rsatiladigan bozor xizmatlarining qiymatidir.

Oziq-ovqat va ichimliklar bilan ta'minlash bo'yicha xizmatlar – oziq-ovqat mahsulotlari va ichimliklar yetkazib berish bo'yicha qo'yilgan ustamadan tashqari, ovqat tayyorlashda ishlatilgan va qayta ishlanmagan holda sotilgan mahsulotlar qiymatini o'z ichiga oluvchi aylanma qiymatdir.

Yashash bo'yicha xizmatlar hajmi, qisqa muddatli turar joy bilan ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar (mehmonxonalar, otellar, motellar va boshqa turar joylar) qiymatini o'z ichiga oladi.

Ko'chmas mulk bilan bog'liq xizmatlarni ko'rsatishda ko'chmas mulk bilan bog'liq operatsiyalar bo'yicha xizmatlar qiymati, korxonaning shaxsiy, xo'jalik yuritish yoki tezkor boshqaruvidagi, shuningdek, ijaraga olingan ko'chmas mulkni ijaraga berishdan olingan daromadlari aks ettiriladi.

Ijara xizmatlari bo'yicha ishlab chiqarish hajmi mashinalar va asbob-uskunalar operatorlarsiz ijaraga berish, maishiy jihozlar va shaxsiy ehtiyoj buyumlarini ijaraga berishdan olingan daromad miqdori sifatida aniqlanadi.

Kompyuterlar va maishiy tovarlarni ta'mirlash bo'yicha xizmatlar hajmi bu – kompyuterlar va periferik uskunalarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish kommunikatsiya uskunalari (fakslar, radiostansiyalar)ni ta'mirlash, maishiy elektronika (radiopriyomniklar va televizorlar), uy va bog' uchun uskunalar (gazon o'ruvchi va havo (dam) beruvchi mashina), poyabzal va charm buyumlar, mebel va uy jihozlari, kiyim va aksessuarlar, sport anjomlari, musiqa asboblari va boshqa shaxsiy buyumlar va maishiy tovarlarni ta'mirlashdan tushgan tushum miqdoridir.

Me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar hajmi shartnomada nazarda tutilgan talablarga muvofiq loyihalar, izlanishlar, konstruktorlik va texnologik ishlar va ko'rsatilgan xizmatlar, shuningdek, qurilish ishlari ustidan nazorat va boshqa injenerlik xizmatlarining qiymatini o'z ichiga oladi.

Xizmatlar sohasi statistikasi boshqarmasi
Tel.: 73-241-98-82